

ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMASIDA XITOIY TILINI O'QITISH MAZMUNINI OPTIMALLASHTIRISH

Lola Shamaksudovna SHASAI DOVA

Doktorant, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ОПТИМИЗАЦИЯ СОДЕРЖАНИЯ ОБУЧЕНИЯ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЕ

Лола Шамаксудовна ШАСАЙДОВА

Докторант, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

OPTIMIZING THE CONTENT OF TEACHING CHINESE IN THE MODERN EDUCATIONAL PARADIGM

Lola Shamaksudovna SHASAI DOVA

DSc student, Doctor of philosophy on pedagogical sciences (PhD)

Uzbekistan State World Language University

Tashkent, Uzbekistan lashasaidova@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 378.147: 811.581.11

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Shasaidova L. Sh. Zamonaviy ta'lim paradigmasida xitoy tilini o'qitish mazmunini optimallashtirish // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 98-114.

<https://doi.org/10.36078/1683275424>

Received: February 16, 2023

Accepted: April 17, 2023

Published: April 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Bugungi kunda xitoy tilini o'qitish mazmunini optimallashtirishning dolzarbligi har qachongidan ham yuqoridir. Ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichi axborot hajmining ortib borishi, uning takomillashuvi va doimiy yangilanib borishi bilan tavsiflanadi. Bugunga kelib ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmuni va ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalar o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, ta'lim oluvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning miqdori, turlari va uning murakkablik darajasi ham oshib bormoqda. Ta'lim tizimi bunday o'zgarishlarga, yangilanishlarga doimo tayyor bo'lishi lozim. Mazkur maqolada o'quv materialining yuqori sifatli o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratilgan, ikkinchi tomondan, ko'p vaqt va moliyaviy xarajatlarni talab etmaydigan, ta'lim ishtirokchilarining salomatligi va ruhiy xotirjamligiga salbiy ta'sir qilmaydigan ta'lim jarayonini optimallashtirishning zamonaviy tendensiyalari va muammolari ko'rib chiqildi. Ta'lim jarayonini optimallashtirish belgilab qo'yilgan vazifalarni hal qilishda ayni damdagi sharoitlarda maksimal samaradorlikni beruvchi yo'nalish va uslublarning eng maqbul variantini ongli ravishda tanlashni talab etadi. Optimallashtirish konsepsiyasini asoslashda taniqli lingvodidaktiklar va pedagoglarning to'plangan tajribasi tahlil etildi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida xitoy tili ta'limi mazmunini optimallashtirish yo'llari va tamoyillari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: xitoy tili; zamonaviy ta'lim paradigmasi; optimallashtirish; modernizatsiya; optimologiya; tendensiyalar; optimal variant; optimallashtirish mezonlari; o'quv jarayoni; metod; o'qitish texnologiyalari; samaradorlik.

Аннотация. Актуальность оптимизации обучения китайскому языку сегодня как никогда высока. Современный этап развития образования характеризуется возрастающим объемом информации, ее усложнением и непрерывным обновлением. Меняются образовательные стандарты, содержание учебных программ и учебников, технологии обучения. Одновременно происходит увеличение объема информации, подлежащей усвоению, и ее сложности. В статье рассматриваются современные тенденции и проблемы оптимизации учебного процесса, которая позволила бы, с одной стороны, обеспечить качественное усвоение учебного материала, а с другой — не требовала бы увеличения временных и финансовых затрат, нервного напряжения, сил и здоровья участников образовательного процесса. Оптимизация учебного процесса требует осознанного выбора именно такого варианта направления и метода, который обеспечит максимально возможную эффективность решения поставленных задач. С целью обоснования концепта оптимизации проанализирован накопленный опыт известных лингводидактов, педагогов. Представлены способы и принципы оптимизации обучения китайскому языку в современной образовательной парадигме.

Ключевые слова: китайский язык; современная образовательная парадигма; оптимизация; модернизация; оптимология; современные тенденции; оптимальный вариант; учебный процесс; метод; технологии обучения; эффективность.

Abstract. Today, the relevance of optimizing the content of Chinese language teaching is higher than ever. The current stage of the development of the educational system is characterized by an increase in the volume of information, its improvement, and constant updating. Today, educational standards, the content of curricula and textbooks, and the technologies used in education are changing. At the same time, the amount of information that the learner needs to know and its level of complexity is also increasing. The educational system should always be ready for such changes and updates. The article discusses current trends and problems of optimizing the educational process, which would, on the one hand, ensure high-quality assimilation of educational material, and on the other hand, would not require an increase in time and financial costs, nervous tension, strength and health of the participants in the educational process. Optimizing the educational process requires a conscious choice of the most optimal alternative of approaches and methods that provide maximum efficiency in the current conditions to solve the set tasks. The accumulated experience of well-known linguodidactics and pedagogues was analyzed to justify the concept of optimization. The ways and principles of optimizing the content of Chinese language education in the modern educational paradigm were considered.

Keywords: Chinese language; modern educational paradigm; optimization; modernization; optimization; current trends; optimal option; optimization criteria; educational process; method; teaching technologies; efficiency.

Kirish. Dunyoda chet tili ta'limi, xususan, xitoy tili ta'limi mazmunini optimallashtirishning nazariy asoslarini tushunish, takomillashtirish bo'yicha Yevropa, Xitoy va Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarida qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda jahon pedagogik hamjamiyatida ta‘lim samaradorligini oshirish, zamon ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan darajaga olib chiqish masalasi qizg‘in muhokama qilinmoqda.

Yurtimizda Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlar natijasi sifatida 2021-yil 24-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oliy ta‘lim tizimini tub ijobiy o‘zgarishlarga olib keladigan oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruvda mustaqillik berish borasidagi 2 ta muhim hujjat, ya‘ni “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (17) hamda “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (18) qarorlar imzolandi.

Ushbu qarorlar oliy ta‘lim muassasalariga bir qator yengilliklar yaratib berish bilan birga, professor-o‘qituvchilar va talabalarga ham katta qulaylik olib kelishi, OTM rahbariyati tomonidan ta‘limni optimallashtirish orqali sifat darajasini oshirish, o‘qituvchi va talabalardan o‘quv yuklamasini kamaytirish orqali fanlarni yaxshi o‘zlashtirishga yo‘l ochib beradi.

O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari yuksak darajaga ko‘tarilib, tizimli va jadal tus olib, madaniy-gumanitar, ilmiy-ma‘rifiy aloqalar kengayayotgan bir paytda murakkab tillaridan biri xitoy tilini o‘qitish mazmunini optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlarini aniqlash va amaliy tadbiq etish bilan bog‘liq tadqiqot muammolarini hal qilish uchun “ta‘limni optimallashtirish” muammosini nazariy va amaliy tadqiq etish zaruriyatini izohlaydi.

Pedagogikada optimallashtirish — bu o‘ziga xos bo‘lgan, almashtirib bo‘lmaydigan pedagogik innovatsiya jarayoni sanaladi. Bu borada biz D. K. Bartoshning samaradorlik haqidagi fikriga qo‘shilamiz: “...bugungi davrda ta‘lim samaradorligiga ... uning natijalarini bugungi kun uchun optimal bo‘lgan natijalarga yaqinlashtirish sifatida qarash kerak” (2). Boshqacha aytganda, samarali ta‘lim jamiyatning ijtimoiy talabini to‘liq bajarishi kerak. Aynan shu maqsadda ta‘limni optimallashtirish, uni yangi bosqichga olib chiqa oladigan usul va texnologiyalarni ishlab chiqish bugungi kun tadqiqotchilarini doimiy ravishda yangi usul va yondashuvlarni izlashga majbur qilmoqda.

Asosiy qism. Zamonaviy ta‘lim paradigmasida esa optimallashtirish — ta‘limdagi jadallashuv va samaradorlik, modernizatsiya va transformatsiya orqali ta‘lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishdagi muhim qadamdir. Bugungi kunda optimologiya fanlarning xalqaro uyg‘unligidagi yo‘nalish sifatida mavjud, u o‘zining kengliklari va mazmuniga ko‘ra umummilliy fanlarga o‘xshab ketadi, tizimlarning umumiy nazariyasi sifatida kibernetika, informatika, olamshumul taraqqiyot bilan bog‘liq.

Optimallashtirish yoki faollashtirish g‘oyasi o‘zining dastlabki jarayonini umumiy nazariyalar tizimi, kibernetikadan boshlab bergan. Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida “optimallashtirish” termini ketma-ketlikda bajariladigan harakatlar, ma‘lum bir maqsadni amalga

oshirish uchun ishlarning tegishli bir jarayonini anglatadi, bu jarayon sifatli va aniq natijalarni olishga imkon beradi. Optimallashtirish — bu har doim tanlash imkoniyatining borligi, ya'ni kundalik hayoti va kasb faoliyati jarayonida ko'pchilik bu ish bilan shug'ullanadi. Umuman, "optimallashtirish" deganda jamiyatning turli jabhalarida ro'y berayotgan ijobiy hodisalarni, yangiliklarni tushunish mumkin.

Optimallashtirish (lotincha optimum — eng yaxshi), ma'lum bir funksiyaning ekstremumini (global maksimali yoki minimali) yoki muqobil variantini topish, aniqroq qilib aytganda, mavjud imkoniyatlardan eng yaxshisini (optimalini) tanlash jarayonini anglatadi.

Optimal atamasi esa (lotincha optimus — eng yaxshi), eng maqbul, eng yaxshi degan ma'noni beradi. Optimal variantni aniqlash jarayoni mavjud barcha variant va imkoniyatlarni tahlil qilish va qiyosiy baholash orqali amalga oshadi.

Optimallashtirish bo'yicha harakatlar ketma-ketligi quyidagilardan iborat:

1. O'zgarishlar qanchalik zarurligini baholash.
2. Muammolarni aniqlash va ularni hal qilish usullarini tanlash.
3. Jarayonlarni qanday o'zgartirish strategiyasini belgilash.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

O'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishning ilmiy g'oyasini ishlab chiqish XX asrning 70-yillarida akademik Y. K. Babanskiy tomonidan boshlab berilgan edi. Y. K. Babanskiyning nazariyasiga ko'ra, ta'limni optimallashtirishni jarayoni uning asosiy komponentlari bo'lmish vazifalar, metodlar, vositalar, shakllar va boshqalar ichidan eng optimal variantni tanlashga qaratilgan usullar majmuidan iboratdir (1). Shu bilan bir qatorda, ko'pgina tadqiqotlarda ta'limni optimallashtirish deganda vaqt, moddiy va boshqa resurslardan oqilona foydalangan holda ta'limning eng maksimal samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonning barcha ishtirokchilarining o'zaro faoliyatidir.

Ushbu nazariyaning o'qituvchilar amaliy faoliyati uchun eng muhim sanalgan asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim jarayonini optimallashtirish tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash.
2. Optimallashtirishning uslubiy asoslarini tavsiflash.
3. Ta'limni optimallashtirish mezonlarini aniqlash va asoslash.
4. Ta'limni optimallashtirish usullari tizimini ishlab chiqish va tavsiflash.

Ushbu tadqiqotda optimallashtirish tushunchasi "ta'lim samaradorligini istalgan bir vosita bilan emas, balki muayyan sharoit uchun eng foydali hamda zarur bo'lgan vositalar majmui orqali oshirish" ma'nosida berilgan. Shunday ekan, ta'lim jarayonini optimallashtirish ta'lim mazmunini ta'lim maqsadiga erishishda minimal vaqtda maksimal ta'lim natijalarini erishishlari tez, oson, samarali erishishga yordam beradigan ta'lim shakllarini, usullari va vositalarini tanlashni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Pedagogikada optimallashtirish masalalari turli davrlarda va turli pedagogik

obyektlarga qaratilgan holda tadqiq etildi. XX asrning 60-yillarida I. T. Ogorodnikov turli xil o'qitish usullarini optimal kombinatsiyalash imkoniyatini; 1970-yillardan boshlab Y. K. Babanskiy o'z ilmiy ishlarida ta'lim jarayonini optimallashtirish tamoyillarini; I. M. Cheredov ta'limning turli shakllarini optimal moslashtirish tamoyillari masalalari ustida izlangan bo'lsa, V. P. Bospalko, A. G. Molibog va boshqalar dars strukturasini optimallashtirish, S. F. Jukov o'quv jarayonini optimallashtirishning psixologik-pedagogik shartlari, B. Y. Starichenko va boshqalar ta'limning metodik tizimini optimallashtirish masalalari bo'yicha tadqiqot olib borganlar.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda mazkur tushuncha faol va uzlukusiz o'rganilib kelinsa-da, uning mazmuni haqida aniq bir to'xtamga kelinmaganini guvohi bo'lmoqdamiz (4). Bu muammo hali-hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

Didaktikada mazkur atama yagona talqinining yo'qligi ta'lim subyektlari faoliyati natijalarini sifatli tahlil qilish va ularning ushbu jarayonni optimallashtirish bilan bog'liq harakatlariga obyektiv baho berishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, optimallik mezonlari masalasi ham ochiqlicha qolmoqda. Shu munosabat bilan biz "metodik tizimni optimallashtirish" tushunchasining mazmunini aniqlash va asoslashga qaratishimiz lozim.

Chet tili ta'limini optimallashtirish muammosi bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asrning 80-yillaridan boshlab ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari turli ta'lim tizimlarida chet tillarini o'qitishni optimallashtirish yo'llarini izlashga qaratilgan tadqiqotlar salmoqlidir.

Ta'lim jarayonini optimallashtirish muammosini faqat nazariy muammoga bog'lab bo'lmaydi, shu bilan birga, uning yechimini amaliyotda ham topishni imkoni yo'q. Bir tomondan, pedagogik amaliyot pedagogik nazariyalarni optimallashtirish samaradorligining o'lchovidir, ikkinchi tomondan esa yetarli nazariy asoslarsiz ta'lim jarayonini optimallashtirishga urinish, tabiiyki, ijobiy natijalarga olib kelmaydi.

Biroq, fikrimizcha, pedagogik nazariya aniq konseptual tizimga ega bo'lgan taqdirdagina pedagogik amaliyotga konstruktiv ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun nazariyadan amaliyotga o'tish yo'lidagi ilk qadam ma'lum bir pedagogik konsepsiyani shakllantirish bo'lib, so'ngra uning doirasida optimallashtirish jarayonini yaratishdir.

Pedagogik tadqiqotlarning barcha keyingi mahsulotlari qabul qilingan konsepsiyaga nisbatan ikkinchi darajali bo'lib, faqat shu konsepsiya doirasida tahlil qilinishi, tekshirilishi, tanqid qilinishi va baholanishi mumkin bo'ladi.

Bizning tadqiqotimiz kontekstidagi ta'lim mazmunini optimallashtirish deganda, ta'lim mazmunini ilmiy asoslangan holda tanlash va tashkillashtirishni nazarda tutamiz, bu esa muayyan shartlar uchun eng yaxshi ta'lim variantini amaliyotga joriylantirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda aksariyat tadqiqotchilar Y. K. Babanskiy, Y. G. Azimov, A. N. Shukin va boshqalar tomonidan taklif etilgan optimallashtirish me'yorlariga asoslanadilar. Bular quyidagilarni nazarda tutadi:

— ta'lim natijalarining fan dasturi talablariga, shuningdek, har bir ta'lim oluvchi rivojlanishining maksimal imkoniyatlariga muvofiqligi;

— o'qituvchi va ta'lim oluvchining o'qish vaqti va mehnati amaldagi me'yorlarga muvofiqligi;

— ta'limning samarali texnologiyalaridan foydalanish va ularning o'zgaruvchanligi (variativligi);

— ta'lim oluvchi shaxsining psixologik zaxiralarini faollashtirish.

Chet tillarini o'qitish metodikasi sohasidagi biz ko'rib chiqqan tadqiqotlarda optimallashtirish tushunchasining mazmuni ko'p komponentli ekanligini va bu komponentlarning miqdori va mazmuni, yondashuvlari ijtimoiy va ta'lim vaziyatining xususiyatlariga qarab o'zgarib turishini ko'rsatdi.

Mazkur muammolarni hal etishda o'qitishning shakl va usul vositalarini takomillashtirish alohida o'rin tutadi.

G. A. Kuznetsova gumanitar universitetlarda chet tilini o'qitish jarayonlarini optimallashtirish muammolarini o'rganar ekan, bunda faol o'qitish usullari, jumladan, loyiha usuli va kompyuter testlarini o'z ichiga olgan dasturlashtirilgan texnologiyani taklif etadi (7).

Xitoy tili ta'limining zamonaviy paradigmasida til muayyan milliy madaniyatlar kontekstida o'rganiladi va madaniyatlارaro muloqotni o'rgatish tilni o'qitish jarayonining muhim qismiga aylanadi. Buning uchun mashg'ulotlar jarayonida individual ijro uslubiga yo'naltirilgan vazifalarni tanlash kabi usullarni qo'llash kerak; talabalarni muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini muammoli topshiriqlar yordamida topishga jalb qilish talabalarning kognitiv faolligini optimallashtiradi.

Chet (xitoy) tilini o'qitish, o'zlashtirish samaradorligi, ko'p jihatdan o'rganish uchun individual shartlar va sharoitlarga bog'liq. Shuning uchun xitoy tili darslari uchun talabalarning ijodiy va kognitiv faolligini rag'batlantiradigan material, mashqlar va topshiriqlarni tanlash, darslarni o'tkazishning turli xil turlari va shakllaridan foydalanish, masalan, muhokamalar, ishbilarmon o'yinlar, texnik o'qitish vositalaridan foydalangan holda guruhlarda ishlash kerak. Talabalar kasbiy yo'naltirilgan loyihalar, ijodiy ishlar, taqdimotlar ishlab chiqish orqali o'zlarining lisoniy va nutqiy ko'nikmalarini oshirish uchun individual ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xitoylik Yanmei Zhao, Zhufen Yang kabi tadqiqotchilar xitoy tili ta'limi mazmunini optimallashtiruvchi omil sifatida darslarda ta'lim psixologiyasidan nazariy asos sifatida foydalanishni ko'rsatadilar (15). Ular tilni o'rganishga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan quyidagilarni ajratib ko'rsatadilar: motivatsiya 33%, qobiliyat 33 %, intellekt 20 %, boshqalar 14 % (9). Aytish joizki, xitoy tili ta'limida samaraga erishishda o'rganishga bo'lgan kuchli

ishtiyoq, aniq maqsad va faoliyatga yo'naltirilgan subyektiv motivatsiya bo'lishi juda zarur.

Xitoy tilini o'qitish metodikasida ta'lim beruvchidan ta'lim oluvchiga yo'naltirilganlik tamoyiliga amal qilish, ularning auditoriyadagi o'zaro hamkorligini kuchaytirish, mustaqil o'rganishga yo'naltirish, baholash treningini o'tkazish, tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq, tashabbuskorlik, ijodkorlik, novatorlik qobiliyatini rivojlantirishni talab etilmoqda. Gao Yunhong ta'kidlashicha, biror narsani o'rganish mulohaza yuritishdan, fikrlash shubhadan, biron narsaga qiziqish esa savollardan boshlanar ekan (3). Aynan shu sababli tadqiqotchi ta'limni optimallashtirish uchun talabalarga muammoni vaziyatli topshiriqlarni bajarishga yo'naltirilgan vazifalardan foydalanishni tavsiya etadi.

Liao Yinghong, Wang Yanbo, Sun Hongyan, Wu Jianhong, Jiang Xiaojie (12,14,13,15,11) kabi zamonaviy tadqiqotchilar Internet asrida Xitoy tili va adabiyoti ta'limini optimallashtirish chora-tadbirlari bo'yicha yakdil fikrlarni ilgari suradilar. Ularning ta'biri bilan aytganda, ayni kunlarda ta'limdagi an'anaviy o'qitish usullarini ta'limga zamonaviy tarmoq texnologiyalarini integratsiyalash orqali transformatsiyalash lozim. Bu o'z navbatida ta'lim jarayonidagi vaqt va makon chegarasidagi ma'lum cheklavlarni bartaraf etishga imkon beradi.

Y. N. Kolpachkovaning zamonaviy ta'lim sharoitlarida xitoy tili ta'limini optimallashtirish mavzusiga doir tadqiqotlarida xitoy tilini ta'lim texnologiyalaridagi innovatsiyalar bilan uyg'unlashgan holda bosqichma-bosqich o'qitish, ta'limning barcha bosqichlarida samarali amaliy natijalar berishini ta'kidlaydi. An'anaviy o'quv-uslubiy ta'minotni to'ldiruvchi elektron o'quv komplekslarni yaratishni rivojlanishi xitoy tilini ommaviy o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi (7).

Ayniqsa, dunyo bo'ylab tarqalgan koronavirus pandemiyasi davrida ta'lim tizimi optimallashtirishga katta ehtiyoj sezdi. Mazkur davrdagi masofaviy ta'lim muhitidagi virtual auditoriya dizaynini optimallashtirish, topshiriqlarga asoslangan ta'lim usullaridan foydalanish va passiv ta'limdan faol ta'limga o'tish bilan bog'liq masalalar qizg'in muhokama qilindi.

Mana shu davrdan boshlab, ya'ni ushbu mavzuga qiziqishning ortib borayotgan paytidan boshlab optimallashtirish yoki faollashtirish muammosi o'zining ko'pqirraliligi, murakkabligi va yangiliklari bilan nazariyotchi va amaliyotchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Muhokama. Oliy ta'lim muassasalarida chet tili ta'limi jarayonini optimallashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1) o'quv jarayonini o'quv reja va dasturlari mazmuni, o'qituvchining pedagogik mahorati, o'qitish shakllari va usullarining takomillashtirish orqali rejalashtirish;

- 2) o'qituvchining o'quv-texnik vositalari, innovatsion o'qitish usullari va axborot texnologiyalaridan faol foydalangan holda imkoniyatlarini kengaytirish orqali.

Mavjud tajribani umumlashtirish va tahlil qilish jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, endilikda ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchidan to'g'ridan to'g'ri axborot (bilim)larni qabul qilmay, balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasi, nazorati ostida o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda ishlash orqali nazariy bilimlarni o'zlashtirib, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Optimallashtirilgan vazifalarni hal qilish quyidagi savollarga javob berishni talab etadi:

1) Bizning vazifamiz nima bilan bog'liq? Tizimning vazifalari qanday, uning atrof-muhit bilan aloqasi qanday?

2) Biz nimani istaymiz? Buning uchun nima qilish kerak va qanday amalga oshirish kerak?

3) Bizning imkoniyatlarimiz qanday, bizning istaklarimizni amalga oshirish uchun qanday manbalarimiz bor?

Aynan mana shu yerda ko'p xatolarga yo'l qo'yiladi, bu haqda Dj.Dyui aniq qilib aytganidek: "Yaxshilab belgilab qo'yilgan vazifaning o'zi muammoning yarmi hal qilinganini ko'rstadi". Vazifalarni ma'lum bir o'lchovlarda qo'yish zarur, ya'ni natijada ularni o'lchashning imkoni bo'lsin (5).

Optimallashtirish usullari tizimining muhimligini aniqlab turib, Y. K. Babanskiy o'quv jarayonini tashkil qilish va yaratishda bu kabi giperbolizatsiyaning mumkin emasligini ko'rsatib o'tgan edi. O'qitishni rejalashtirishda u faqatgina optimallashtirish tamoyilinigina emas, balki mehnatni ilmiy tomondan tashkillashtirishning boshqa tamoyillarini ham hisobga olish zarurligini aytgan edi. "O'qitishni optimallashtirish o'qitishning o'zi bilan bog'liq bo'lgan tamoyillarini uyg'unlashtirishda ma'lum o'rtacha oraliqni, me'yorni o'rnatishga imkon beradi. O'qitishda ilmiylik va qulaylik, ko'rgazmalilik va mavhumlik tamoyillarini uyg'unlikda qo'llash ta'lim va tarbiya nazariyasi mutaxassislari bo'lgan olimlarining intilishlari orqali optimallashtirish g'oyasidan kelib chiqadi, bunda ta'lim oluvchining faolligi va o'qituvchining boshqaruvchilik roliga ham bog'liq. Bu tamoyillardan birining qo'llanishi o'qitishni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni susaytirib yubormasligi lozim" (1).

Optimallashtirish bo'yicha variantlarning mavjudligi, ularni tanlash, ularning son va sifat jihatidan o'lchamlarini tanlash optimallashtirish bo'yicha tadqiqot predmeti va obyektni aniqlashtirishga yordam beradi. Bu o'lcham pedagogik tizimni optimallashtirishning metodologik talablariga mos keladi:

1. Butun tizimni to'lig'icha optimallashtirishni qamrab olish.

2. O'quv-tarbiya jarayonining barcha qonuniyatlari tizimini tanlashda optimal variantni tanlashga e'tibor berish.

3. Tizimning barcha jihatlarini optimallashtirish imkoniyatlari ketma-ketligini hisobga olish.

4. Optimallashtirish innovatsiya jarayonlarining doimiy olib boriladigan faoliyat ekanligini, uning juda yuqori qilib belgilangan vazifalari borligi va mukammal texnologiyalar bilan davom etishi bilan bog'liq muammolarini hal etish (9).

Optimallashtirish jarayonining ketma-ketlikda olib borilishiga muvofiq asosiy ish mezonlarni belgilab olishdan boshlanadi. Buning asosida esa tizim rivojlanishining muqobil variantlarini baholash amalga oshiriladi, ularning orasidan eng yaxshilari tanlab olinadi. Pedagogik tizimlarning o'ziga xos ajralib turadigan jihati shundan iboratki, bunda mezonlar murakkabligiga ko'ra, tizimlarning turlicha qirralari mavjudligiga qarab to'plam ko'rinishida bo'ladi, ular son jihatdan ko'p bo'lib, har bir tizim ichida ular bir-biri bilan bog'liq bo'ladi.

Y. K. Babanskiyning yozishicha, tizimning qirralari, zamonaviy maktabning o'quv jarayonini optimallashtirishdagi muhim mezonlari sifatida samaradorlikni, o'quv-tarbiya vazifalarini hal qilishning sifati, shuningdek, vaqtning sarflanishi, pedagoglar va o'quvchilarning bu masalani hal qilish uchun sarflangan harakatlari, intilishlarini olish mumkin. Olim samaradorlikning ko'rsatkichlar sifatida o'qitishning muvaffaqiyatli olib borilishini aytadi, bu ta'lim oluvchilarning tarbiyasi va rivojlanishlariga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim va tarbiyaning sifati Y. K. Babanskiyning konsepsiyasida olingan natijalarning belgilangan maqsadlarga muvofiq kelishi, talablarga javob berishi sifatida ko'rsatiladi, shuningdek, rivojlanishning ma'lum bir davrida bu natijalarning ta'lim oluvchilarning yuqori darajadagi imkoniyatlariga mos kelishi ta'kidlanadi. Optimal ko'rinishdagi qarorni qabul qilish uch ko'rinishga bo'linadi:

- 1-ko'rinishdagi — imkon darajasida kamroq resurs sarflagan holda belgilangan natijaga erishishni ta'minlovchi eng yaxshi variantni tanlab olish;

- 2-ko'rinishdagi — maksimal darajada natijalarga erishish uchun qat'iy belgilab qo'yilgan manbalar ichidan eng yashisidan foydalanishni tanlash;

- 3-ko'rinishdagi — qat'iy belgilab qo'yilmagan natija va resurslar sharoitida eng yaxshi variantini izlab topish.

Ko'p holatlarda pedagogik amaliyot davomidagi optimallashtirish vazifalarini birinchi va ikkinchi ko'rinish bilan bog'lab ko'rsatadilar, vaholanki, uchinchi ko'rinishdagi vazifalar ancha murakkab hisoblanadi.

Ta'lim tizimida optimallashtirishning vazifalari quyidagi holatlarda hal qilinishi lozim bo'ladi:

- amaldagi o'quv jarayonining qoniqarsiz natijasi aniq bo'lgan holatlarda;

- pedagogik tizimning ma'lum bir qismlari tashqi sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarida o'zgarishning yuzaga kelishida namoyon bo'ladi (predmetning nazariyasi va amaliyotida o'zgarishlar asosida dasturni qayta ishlab chiqish, o'qitishning shart-sharoitlarini qayta ko'rib chiqish;

- ta'lim jarayonining yangi (yetarlicha ravishda yangilanadigan) tizimini ishlab chiqishda.

Birinchi va ikkinchi holatlardagi optimallashtirish amaldagi jarayonning tahlil qilinishi, uning ko'rsatkichlariga baho berilishi amaldagi tajriba asosida qarorlar qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Uchinchi holatdagi optimallashtirishda sintez qilish vazifasi turadi,

bunda qarorlar qabul qilish uchun amalda (oliy o'quv yurtida, mamlakatda, chet ellarda) bor bo'lgan tajribaga asoslanib xulosa qilinadi. Shuning uchun ham ushbu vaziyat ancha murakkab hisoblanadi, lekin til ta'limiga oid islohotlar sharoitida bu vaziyat oldingi yillarga qaraganda ko'proq yuzaga kelmoqda.

Ta'lim jarayonini optimallashtirishga quyidagi tamoyillardan kelib chiqqan holda yondashish zarur bo'ladi:

1. Ta'lim jarayoni barcha jihatlarining har tomonlama rivojlanishidagi bir-biriga bog'liqlikni nazarda tutuvchi tizimlilik.

2. Oldinga qo'yilgan maqsadlarni nazarda tutuvchi aniqlikning mavjudligi, bu real sharoitlarni hisobga oladi.

3. Bir komponentning gipertrofik tarzda, ya'ni boshqalari evaziga rivojlanishiga yo'l qo'ymaydigan o'lcham.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, optimallashtirish aniq bir vazifani nazarda tutuvchi, aniq bir ko'rsatkichga nisbatan olinadi yoki ularni birgalikda ko'rib chiqilishi ham nazarda tutiladi. Buning uchun bir narsani aniq belgilab olish zarur bo'ladi, nimani optimallashtirish kerak va bunda qanday o'lcham olinadi yoki ma'lum bir o'lchamlar yig'indisi olinishi va uning optimal ahamiyatiga ham e'tibor berish kerak bo'ladi.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, optimallashtirishga aloqador bo'lgan mezonlar va ko'rsatkichlarni, o'lchamlarni (tavsiflarini) ishlab chiqilishi zaruriyati mavjuddir.

Pedagogik adabiyotlarda "mezon" atamasi ba'zi o'rinlarda "ko'rsatkich" atamasining mazmunini beradi. Masalan, "maqsadga erishish darajasi" degan tushunchani ko'pincha optimallik ko'rsatkichi sifatida qo'llaydilar.

Optimallik ko'rsatkichining shakllanishi yoki uni tanlash — bu bosh masala deyish mumkin, bunda ta'lim jarayonining davom etishi, uni yaxshilash maqsadida bu vazifani amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham uni (ko'rsatkichni) pedagogik tizimni har tomonlama o'rganib chiqilgan holatda tanlash va uni asosiy maqsadni amalga oshirishga yo'naltirish to'g'ri bo'ladi.

Biz ko'rib chiqqan yuqorida keltirilgan adabiyotlarda ta'lim jarayonini optimallashtirishga doir turlicha qarashlar, nuqtayi nazarlar mavjud. Ba'zi mualliflar o'qitish vaqtini uni ratsional ravishda taqsimlash eng muhim deb hisoblaydilar; boshqalari esa hajm, tizimlilik, mustahkamlik, bilimlarning haqiqiyligi deb hisoblaydilar; uchinchi bir toifadagi mutaxassislar esa o'quvchilar tomonidan to'g'ri bajarilgan topshiriqlarning taklif qilingan topshiriqlarga nisbatan munosabati va buni materialning o'zlashtirilganlik darajasi deb hisoblaydilar (bunda qoniqarli deb topilgan ishlar 70 % to'g'ri bajarilgan ishlardan iborat bo'ladi. Shuning bilan bir qatorda, ta'limni optimallashtirishga son jihatidan va obyektiv baho berishning qiyinligi sababli bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha baholashni ko'pchilik real voqelik deb hisoblamaydi. Shunga qaramasdan, bunday yondashuv hozirgi sharoitlarda ancha dolzarb hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichi — ta'limning maqsad, vazifalari qo'yadigan talablardan kelib chiqqan holda natijalarning mezonlarga mos kelishi orqali, shuningdek, natijalarning mezonlarga

mos kelishida talabalarning maksimal imkoniyatlarini hisobga olish, bu ma'lum bir paytlarda ularning rivojlanishlarini ham hisobga olinishini nazarda tutadi. Vaqtning sarflashining optimallik ko'rsatkichi va pedagoglarning hamda o'quvchilarning harakatlarida o'z ifodasini topadi va bunda gigiyenaga doir me'yorlarning bajarilishidagi harakatlar ham inobatga olinadi.

Bugungi kun oliy ta'lim muassasalarining ta'lim natijalarining optimal darajaga erishilganligini belgilovchi mezonlar har bir ta'lim oluvchining ushbu bosqichdagi o'zlashtirishi va bilim darajasining oshib borishi bilan bog'liq. Bunda baho qo'yishning belgilangan me'yorlariga muvofiq o'zlashtirish darajasi qoniqarli bahodan past darajada bo'lmasligi, bunda o'qitishning optimal natijalariga erishishda o'qituvchilar va talabalar ortiqcha urinishlariga yo'l qo'yilmasligini eslatib o'tadi.

O'z navbatida, optimallikning yana qo'shimcha mezonlaridan biri talabalar va o'qituvchilar tomonidan ta'lim uchun ajratilgan vaqtga rioya qilinishidir. Eng oxirgi mezon qo'shimcha ravishda ko'rib chiqiladi, chunki bu faqat birinchi mezonning bajarilish shartiga bog'liq bo'ladi. Shunga qaramasdan, o'qitishda optimallikka erishish jarayonida bu me'yorni e'tiborsiz qoldirish (o'qituvchining bo'sh vaqti qisqarishi yoki batamom undan mahrum bo'lishiga) kasb nuqtayi nazaridan o'sish borasida o'qituvchining ma'naviy va kasbiy jihatdan o'sishiga halaqit beradi va uning imkoniyatlarini cheklashga olib keladi. Bajarilishi lozim bo'lgan pedagogik vazifalarning xarakteriga ko'ra, boshqa mezonlarni ham taklif qilish mumkin bo'ladi, masalan:

– vositalarni sarflash bo'yicha (ta'lim jarayonida ishtirokchilari tomonidan sarflanadigan minimal ko'rinishdagi zarur bo'lgan sa'y-harakatlar mezon);

— ta'lim jarayonining, tig'izligi (intensivligi) va hokazolar darajasiga ko'ra.

Ta'lim jarayonining optimalligini loyihalashtirishda o'qituvchi shart bo'lgan vazifalarni belgilab oladi, bu ko'p mezonlarni o'z ichiga oluvchi tizim ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Optimallashtirishning birinchi darajasi optimallashtirishning maqsadlari va kutilayotgan natijalar xususiyatlarini tavsiflovchi mezonlarni nazarda tutadi. Optimallashtirishning bu darajasida quyidagi mezonlar tanlab olinadi:

— sifat va samaradorlikni oshirishda ta'lim jarayonining faqat bir tomoni ko'rib chiqiladi, masalan, ta'lim oluvchilarning o'zlashtira olmasliklarini oldini olish yoki ancha iqtidorli bo'lganlarni o'qitish bo'yicha samaradorlikni oshirish bo'yicha harakatlarni tushunish mumkin;

— sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni bajarish;

— ta'lim va tarbiya berishda sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Ikkinchi darajadagi mezonlar o'z tavsifi va soniga ko'ra ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi, ular qaysidir ma'noda natijalarni ko'rsatib turadi:

— belgilangan maqsadlarga erishishga sarflangan vaqtni, harakatlar va vositalar xarajatini hisobga olmagan holda natijalarni aniqlash;

— maqsadni amalga oshirish uchun sarflangan vaqt, harakatlar, vositalarni hisobga olingan holatida natijalarni aniqlash.

Uchinchi darajadagi mezonlar esa optimallashtirish vazifalarini hal qilish uchun qanday subyektlarning jalb etilishi bilan bog'liq:

— ta'lim muassasi rahbariyati;

— ta'lim muassasi rahbariyati va pedagogik jamoa;

— ta'lim muassasi rahbariyati, pedagogik jamoa, ta'lim oluvchilar.

Oliy ta'limda optimallashtirishning asosiy tamoyillarini ko'rib chiqar ekanmiz, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

— ta'lim maqsadlarini optimallashtirish;

— ta'lim mazmunini optimallashtirish;

— o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish;

— o'quv predmetlari, fanlarini (kurslarini) o'rganishga sarflanadigan vaqtni optimallashtirish;

— ta'lim oluvchilarning anglash, tushunish faoliyatini optimallashtirish (ta'lim oluvchilarni jalb etish, qiziqtirish, (o'qitish usullari, vositlarini tanlash; anglash, tushunish jarayonlarini faollashtirish yordamida mustaqil ta'lim usullariga o'rgatish: diqqat qilish, anglash, fikrlash, xotira).

Optimallashtirishda ilk qadam maqsadlarni aniqlash va shakllantirish juda muhim. Undan keyingi qadam anchagina muhim — o'qishning mazmunini optimallashtirish.

O'quv yurtlari amaliyotida ta'lim mazmunini optimallashtirishning quyidagi mezonlaridan ko'proq foydalaniladi:

1. O'quv predmeti mazmunining yaxlitlik mezon, bunda shaxsning har tomonlama rivojlanishida zamon va makon talablarini, zamonaviy fan va ta'limning asosiy yo'nalishlarini aks ettirilishini nazarda tutadi.

2. O'quv predmetining ilmiyligi va amaliy ahamiyati elementlaridan iborat bo'lgan mezon, bu asosiy va salmoqli ahamiyatga ega bo'lgan komponentlarni aniqlab berishga yordam beradi.

3. O'quv predmeti mazmunini pedagogik-psixologik shart-sharoitlar va talablarga muvofiqlikligini belgilovchi ko'p faktorli mezon. Bu mezon ko'plab qo'shimcha mezonlarning yig'indisi sifatida taqdim etilishi mumkin:

— o'quv predmeti mazmunining davlat andozalariga mos kelish mezon;

— o'quv predmeti mazmuni o'quv guruhining tayyorgarligi darajasiga mos kelishi mezon;

— o'quv predmeti mazmunining uni o'rganishga ajratilgan vaqtga mos kelishi mezon;

— o'quv predmeti mazmunining o'quv-moddiy bazasi imkoniyatlariga mos kelish mezon.

Ta'lim mazmunini optimallashtirish bilan shug'ullana turib, bu vaqtgacha o'zgaralar tomonidan tayyorlangan narsalarga ishonib qolmaslik kerak.

Birinchidan, hayot va jamiyat o'zgarib boradi, yangi ma'lumotlar, dalillar, sanoat texnologiyalari va vositalar paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, ta'lim oluvchilarga va ularning tarkibiga nisbatan talablar ham o'zgarib boradi.

Uchinchidan esa, kimdir yangi dasturlar, o'quv darsliklari va yangi yo'nalishlar, mutaxassisliklar bo'yicha o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishi zarur bo'ladi.

Fan tarmog'ini optimallashtirishning metodologiyasi va tamoyillari, eng avvalo, ko'zda tutilgan maqsadlarning to'liq amalga oshishi bilan belgilanadi. Bu esa, o'z navbatida, ko'plab dalillarni o'z ichiga oladi:

— ta'lim mazmunini tashkil etuvchi axborotlarning hajmiga bog'liq bo'ladi;

— o'quv dasturidagi har bir bo'lim va mavzularning o'rganilishiga ajratilgan vaqtga ham bog'liq bo'ladi;

— turli ko'rinishdagi darslarning ratsional mos kelishi ham ahamiyatga ega bo'ladi.

Ta'lim faoliyatini optimallashtirish muammosi, eng avvalo, bu jarayonning faollashtirilishiga bog'liq, ta'lim oluvchilarning anglash, fikrlash faoliyatini yanada faollashtirish yuzasidan ish usullari, metodlarini izlab topish zarur bo'ladi. Lekin "faollashtirish" haqidagi atama hozirgi vaqtgacha ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan mavzu sifatida qolmoqda. Ta'lim faoliyatini faollashtirish faollikni boshqarish demakdir, ya'ni unga jalb etish, qiziqtirish, munosabat bildirish, optimal darajaga olib chiqish va shu darajada ushlab turish. Bunday ta'rif berishda, ya'ni faollik va mustaqillik darajasini optimal darajaga oshirishni nazarda tutiladigan holatda o'qitishdagi faollashtirish va optimallashtirish darajasi o'rtasidagi aloqa kuzatiladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, o'qitishni faollashtirishni optimal darajaga olib kelishning quyidagi yo'llarini belgilashimiz mumkin:

— ta'lim oluvchilarning anglash faoliyatini yetarlicha yuqori darajada shakllantirish;

— anglash faoliyatni boshqarishining optimal choralarini tanlash (diqqat qilishni, qabul qilishni, fikrlashni va xotirani boshqara olish).

Ta'lim oluvchilarda yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantirishda esa quyidagilar zarur:

— har bir o'quv mashg'uloti uchun maqsadni aniq qo'ya olish;

— o'quv materialini boshqa fanlarning mazmuni bilan va kasbiy faoliyat bilan bog'lay olish;

— ta'lim mazmunini ta'lim oluvchilarning tushunish, anglashga doir talablariga mos holda belgilash;

— ta'lim mazmunining kasbiy yo'naltirilganligini ta'minlash;

—ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning optimal darajasini ta'minlash.

Anglash, tushunish faoliyatini boshqarish bilan bog'liq optimal choralarni tanlab olish uchun esa quyidagilar zarur bo'ladi:

1. Shaxsning anglash, tushunish va ruhiy holatlari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

2. Tayyorgarlik ko'rgan (yuqori darajadagi) auditoriya uchun o'quv axborotlarini juda yuqori darajada, ortig'i bilan berish. Kasbiy mahorat nuqtayi nazaridan tayyorgarligi kam bo'lgan auditoriyada esa axborotni qat'iy tizimga solingan va mantiqiy ko'rinishdagi axborot ko'rinishida bergan ma'qul, bunda har bir ko'rinishdagi lavhalarni amaliyotdagi misollar bilan mustahkamlab borish zarur bo'ladi.

3. Ko'rgazmalilikka doir har xil ko'rinishlardan optimal holatda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Pedagogik texnika ustida ishlashni takomillashtirish kerak bo'ladi: nutq texnikasi, noverbal ko'rinishdagi muloqot texnikasi, psixologik ta'sir o'tkazish texnikasi, negativ his-hayajonlarni barataraf etish bilan bog'liq texnika va hokazo holatlar nazarda tutiladi.

5. O'quv materialining obrazlilik, qulay, tushunarli, sodda bo'lish va ifodalilik mezonlariga moslashtirish.

6. O'quv faoliyati davomida kundalik nazoratning turli xil shakllarini amalga oshirish (9).

Natijalar. Demak, ta'lim mazmunini aniqlash oldinga qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda, fanga doir materiallarni o'rganish va o'zaro aloqador bo'lgan fanlarning mazmuni bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda asosiy hujjatlar sifatida o'quv fanlarining mazmuni aks ettirilgan dastur, tematik reja, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, metodik ishlanmalar va boshqa ko'rinishdagi qo'llanmalarni olish mumkin bo'ladi. Ta'lim mazmunini aniqlashda yuqorida aytib o'tilgan metodika va qoidalar asosidagi tamoyillarga amal qilish kutilgan natijalarga olib keladi.

O'quv mashg'ulotlarining mazmunini shakllantirish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

— ta'lim maqsadlariga mos kelish tamoyili;

— tanlab olingan material mazmunida ilmiylik tamoyili (o'quv materiallari mazmunida qoidalar, dalillar, fanda tasdiqlangan fikrlar);

— eskirgan qoidalar va dalillarni yangi zamonaviy qarashlarga monand holda almashtirish tamoyili;

— amaliyot va kasbiy faoliyat mazmuniga aloqadorlik tamoyili;

— mazmunning shaxsiy tajribaga asoslanib olib borilishi tamoyili (agar materialni tushuntirishda buning ta'lim oluvchilarga yetkazishda yordam berishi mumkin bo'lsa va bu mazmunni eslab qolishga yordam bersa).

Ta'lim mazmuni va mavzularini o'rganib chiqib, o'qituvchi material hajmi, unga sarflangan vaqt, materialni uzatish va uni o'zlashtirishga yordam beruvchi usullarni tahlil qilishi zarur bo'ladi, shuningdek, o'quv materialini o'zlashtirishda o'quv guruhlarining

imkoniyatlari, ularning materialni qabul qila olishlari va o'zlashtirishlari, bu jarayonlarni amalga oshirish bo'yicha o'quv-moddiy bazasi imkoniyatlarigacha ko'rib chiqilishi juda muhim bo'ladi.

Shunday qilib, ta'lim jarayonini optimallashtirish o'qituvchidan shu paytgacha qo'llab kelingan, eskirgan ba'zi usullardan voz kechish, mustaqil ravishda va ijodkorlik bilan ish olib borishini talab qiladi. Bu jarayon amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, o'qituvchi faoliyatida samarali natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarning qayta ko'rib chiqilishini talab qiladi.

Bunda o'qituvchi o'zini haddan ziyod toliqtirmagan holda, o'quv mashg'ulotlari uchun ajratilgan vaqt ichida belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan erkin faoliyat olib borishi nazarda tutiladi.

Xulosa. Bir narsani aniqlashtirib olamiz: pedagogik tizim taklif qilinayotgan yoki mavjud bo'lgan sharoitlar uchungina optimallashtirilgan tizim hisoblanadi. Pedagogik tizimlar o'sib boruvchi yoki ochiq bo'lganligi, boshqa (yangi) dalillarning harakati yoki boshqa sharoitlar optimallashtirishda muvozanatni buzadi; tizim optimallashtirilgan bo'lmay qoladi, optimallashtirishning yangi bosqichi boshlanadi. Tanlangan vazifa yuzasidan va unga bo'lgan munosabatga ko'ra optimallashtirish yuzaga keladi, shuning uchun ham u doim aniq; uning "umuman" bo'lmasligi mumkin emas. Tadqiqot uchun shu narsaning anglanishi nihoyatda muhimki, oldinga qo'yilgan maqsadga muvofiq tizimda nimaning optimallashtirilgan bo'lishi zarurligi muhimdir.

Yuqorigi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida metodik tizimni optimallashtirish — bu tizimning tarkibiy qismlarini, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirni, tashqi muhit bilan aloqalarni o'zgartirish jarayoni bo'lib, u ushbu sharoitlarda va standart yoki kam xarajatlar bilan ta'lim maqsadiga maksimal darajada erishishni ta'minlaydi. Taqdim etilgan konsepsiya o'quv jarayonini optimallashtirishning maqsadi, obyekti va mezonlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Demak, ta'lim tizimini optimallashtirish bu — metodik tizimni yangilash, qayta tashkil etish, qayta qurish, mavjud o'ziga xos shart-sharoitlarni hisobga olgan holda qo'yilgan o'quv muammolarini hal qilish uchun eng yaxshi holatga keltirish tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабанский Ю.К. Система способов оптимизации обучения // Вопросы психологии. — 1982. — № 5. — С. 12–22.
2. Бартош Д.К. Система мониторинга как современное средство отслеживания качества образования. // Известия Гомельского государственного университета им. Ф. Скорины. — 2016. — № 5 (98). — С. 5–8.
3. Gao Yunhong. Optimization of Foreign Language Classroom Teaching Process from the Perspective of Educational Psychology of Foreign Language // Journal of Anhui University of Technology. — 2007. — № 5.
4. Гуторова Л.Е. Определение содержания понятия «оптимизация методической системы» // Известия ВГПУ. — 2009. — № 4 (38). — С.106–109.

5. Данилин А.И. Основы теории оптимизации (постановки задач): электронное учебное пособие. — Самара, 2011. — URL: <https://studylib.ru/doc/2719407/a.i.-danilin-osnovy-teorii-optimizacii--postanovki-zadach->
6. Киятина Т.М. Методологические проблемы детерминации оптимизированной человеческой деятельности: автореф. дис. ... канд. философ. наук. — Красноярск, 2000. — 24 с.
7. Колпачкова Е.Н. Информационные технологии в филологическом образовании: оптимизация преподавания китайского языка в новых условиях обучения // Иностранные языки в высшей школе. — 2017. — № 4. — С. 64–74.
8. Кузнецова Г.А. Оптимизация процесса обучения иностранному языку в гуманитарном вузе // Вестник МГЛУ. — 2018. — С. 64.
9. Подласый И.П. Педагогика: учебник для бакалавров. 2 -е изд., перераб. и доп. — М.: Юрайт, 2012. — 574 с.
10. Jia Guanjie. Psychology of Foreign Language Education. — Guangxi: Guangxi Education Press, 2007.
11. Jiang Xiaojie. Analysis of Teaching Optimization of Chinese Language and Literature under the Background of Times of Internet Plus era // Contemporary Education and Teaching Research. — 2021. — № 2.
12. Liao Yinghong. Teaching optimization strategy of Chinese language and literature under the background of “Internet+” era[J] // China Nationalities Expo. — 2018. — P.106-108.
13. Sun Hongyan. Analysis of the optimization of Chinese language and literature teaching under the background of the Internet + era // China New Communications. — 2019. — P. 188.
14. Wang Yanbo. Teaching optimization strategy of Chinese language and literature under the background of “Internet+” era[J]. Talent. — 2019. — P. 85.
15. Wu Jianhong. Teaching optimization strategy of Chinese language and literature under the background of “Internet+” era. Northern Literature. — 2019. — P. 218–219.
- Yanmei Zhao, Zhufen Yang. Study on the Optimization of TCFL (Teaching Chinese as a Foreign Language) from the Perspective of Educational Psychology of Foreign Language. — URL: https://www.researchgate.net/publication/347366582_Study_on_the_Optimization_of_TCFL_Teaching_Chinese_as_a_Foreign_Language_from_the_Perspective_of_Educational_Psychology_of_Foreign_Language
17. <https://lex.uz/uz/docs/-5793261>
18. <https://lex.uz/uz/docs/-5793251>

References

1. Babanskiy, Yu.K. *Voprosy psikhologii*, 1982, No. 5, pp. 12–22.
2. Bartosh D.K. *Izvestiya Gomelskogo gosudarstvennogo universiteta im. F. Skorini*, 2016, No. 5 (98), pp. 5–8.
3. Gao Yunhong. *Journal of Anhui University of Technology*, 2007, No. 5.
4. Gutorova L.Ye. *Izvestiya VGPU*, 2009, No. 4 (38), pp. 106–109.
5. Danilin A.I. *Osnovy teorii optimizatsii (postanovki zadach)* (Fundamentals of the Theory of Optimization), Samara: Samara State Aerospace University, 2011, available at: <https://studylib.ru/doc/2719407/a.i.-danilin-osnovy-teorii-optimizacii--postanovki-zadach->
6. Kiyutina T.M. *Metodologicheskie problemy det erminatsii optimizirovannoy chelovecheskoy deyatel'nosti* (Methodological Problems of the Determination of Optimised Human Activity): Extended abstract of candidate's thesis, Krasnoyarsk, 2000, 24 p.
7. Kolpachkova Ye.N. *Inostrannie yaziki v visshey shkole*, 2017, No. 4, pp. 64–74.
8. Kuznetsova G.A. *Vestnik MGLU*, 2018, P.64.
9. Podlasyy I.P. *Pedagogika* (Pedagogy), 2nd ed., Moscow: Yurayt, 2012, 574 p.
10. Jia Guanjie. *Psychology of Foreign Language Education*, Guangxi: Guangxi Education Press, 2007.
11. Jiang Xiaojie. *Contemporary Education and Teaching Research*, No. 2 Issue 1, 2021.
12. Liao Yinghong. *China Nationalities Expo*, 2018, pp.106–108.

13. Sun Hongyan. *China New Communications*, 2019, P.188.
14. Wang Yanbo. *Teaching optimization strategy of Chinese language and literature under the background of "Internet+" era*[J]. *Talent*, 2019, P. 85.
15. Wu Jianhong. *Northern Literature*, 2019, pp. 218–219.
16. Yanmei Zhao, Zhufen Yang. *Study on the Optimization of TCFL (Teaching Chinese as a Foreign Language) from the Perspective of Educational Psychology of Foreign Language*, available at: https://www.researchgate.net/publication/347366582_Study_on_the_Optimization_of_TCFL_Teaching_Chinese_as_a_Foreign_Language_from_the_Perspective_of_Educational_Psychology_of_Foreign_Language
17. <https://lex.uz/uz/docs/-5793261>
18. <https://lex.uz/uz/docs/-5793251>